



TAFAKKUR
ACADEMY

PROGRESS: GLOBAL TADQIQOTLAR



+998200161268

@Tafakkur_academy

www.tafakkurjournals.uz

USTYURT KO'CHMANCHILARINIG MADANIY MEROSI (arxeologik materiyallar misolida)

Jumaniyazova Feruza Maxsetbayqizi

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Tarix fakulteti

arxeologiya ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Tel: +998912668205 Jumaniyazovaferuza087@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Orol–Kaspiy oralig'ida aniqlangan ilk va o'rta asrlarga oid ko'chmanchi xalqlar madaniyatiga doir arxeologik topilmalar tahlil qilinadi. Ushbu topilmalar Yevroosiyo dashtlari bilan bo'lgan madaniy aloqalarni hamda ko'chmanchilarning badiiy hunarmandchiligi va dunyoqarashini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: *Orol , Yagodin , Ustyurt, Toqqala, Gudkova , Volga*

Аннотация. В статье анализируются археологические находки, относящиеся к культуре кочевых народов раннего и среднего средневековья, обнаруженные в Арало-Каспийском междуречье. Эти находки освещают культурные связи со степями Евразии, а также художественное ремесло и мировоззрение кочевников.

Ключевые слова: *Арал, Ягодин, Устюрт, Токкала, Гудкова, Волга.*

Abstract. The article analyzes archaeological finds related to the culture of nomadic peoples of the early and middle Ages discovered in the Aral-Caspian interfluve. These finds shed light on cultural links with the Eurasian steppes, as well as the artistic craftsmanship and worldview of the nomads.

Keywords: *Aral, Yagodin, Ustyurt, Tokkala, Gudkova, Volga.*

Orol–Kaspiy oralig'ida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ilk va o'rta asrlarga oid ko'chmanchi xalqlarga tegishli ko'plab topilmalar aniqlangan. Ushbu topilmalar qadimgi va o'rta asrlar ko'chmanchilariga xos bo'lgan badiiy hunarmandchilik hamda ma'naviy-ruhiy tasavvurlarni o'rganish imkonini beradi

Orol–Kaspiy oralig'i yodgorliklaridan biri — Qasqa yo'l bo'yida joylashgan №4 qo'rg'on yodgorligidan tekis shaklli, dumaloq tutqichli bronza oyna topilgan. Ushbu oynaning orqa qismi gravirovka — chizma usulida ishlangan bo'lib, o'ng tomonga qaragan o'rdak shaklidagi qush tasvirlari bir-biriga uyg'un holda joylashtirilgan bezaklar bilan bezatilgan. Mazkur oyna Yevroosiyo hududida keng tarqalgan bronza oynalarga o'xshaydi. V. N. Yagodinining fikriga ko'ra, bunday bezakli oynalar M. G. Moshkova tomonidan miloddan avvalgi IV–III asrlarga mansub Proxorovka madaniyatiga (Orenburg viloyati) tegishli deb ko'rsatilgan.[3.C 22-35]

№4 qo'rg'onidan topilgan katta temir qilich (mech) o'zining analogiyalari (tarqalish hududi)ga ko'ra Janubiy Ural va Volga bo'yi hududlaridagi ilk

Proxorovka madaniyatiga xosdir. Umuman olganda, ushbu hudud — Ustyurt hamda Kaspiy–Orol oralig‘i deb ataladigan mintaqadagi arxeologik topilmalar Yevroosiyo dashtlari bilan mustahkam madaniy aloqalarda bo‘lganini tasdiqlaydi.

V. N. Yagodinining tadqiqotlarida qayd etilgan yana bir topilma — suyakdan yasalgan o‘q-yoy (kamon) namunasi Duwana qabristonidagi №30 qo‘rg‘ondan aniqlangan. Ushbu qabrdan in situ, ya‘ni o‘z holatida topilgan kamon Yevroosiyodagi hunn–sarmat madaniyatlariga xos topilma hisoblanadi. Shuningdek, bunday turdagi kamonlar Ken‘ko‘l madaniyati yodgorliklarida, Qirg‘iziston hududlarida hamda Janubiy Sibirda ham uchraydi.[1. 56-77]

Bunday misollarni Ustyurt hamda unga qo‘shni hududlardagi boshqa badiiy hunarmandchilikka oid topilmalar orqali ham dalillab ko‘rsatish mumkin. Ushbu ma‘lumotlar yozma manbalar bilan ham tasdiqlanadi.

Tegisken qabristonidan oltin blyashkada ishlangan arslon tasviri topilgan. Uygarak qabristonidan esa suvsar (olena) shaklidagi haykalcha aniqlangan. Ilk o‘rta asrlarda Yevroosiyo ko‘chmanchilarining badiiy san‘atida, xususan turkiy qabilalar orasida

VII–VIII asrlarda amaliy san‘at yetakchi o‘rin egallagan. Turk xalqlarida naqsh va bezak san‘ati qadimdan an‘anaviy bo‘lib kelgani ma‘lum. Naqshlar asosan kigiz, suyak va metall buyumlarga ishlangan. Kigiz buyumlarda 300 dan ortiq shaklga ega bo‘lgan geometrik bezaklar uchraydi. O‘simliksimon (rastateleniy) ornamentlar ham ko‘chmanchilar badiiy san‘atida muhim o‘rin egallaydi. Sibir mintaqasi badiiy san‘atida esa gilam, kigiz, palos kabi buyumlarda ham 300 ga yaqin turli shakldagi naqsh va bezaklar aks etgan. [2. C 84-102]

Hayvonlar figuralari bir-biridan aniq ajralib turgan. Dasht ko‘chmanchilarining badiiy san‘atidagi ornamentallik uslubida buyumlarda harakat ifodasi berilgan. Turkiy zodagonlarning belbog‘larida (poyas to‘plamlarida) geometrik naqshlar muhim o‘rin egallagan. Qadimgi xakas (qirg‘iz) badiiy san‘atida oltin blyashkalarda o‘simliksimon ornamentlar uchraydi, shuningdek an‘anaviy “hayvon uslubi”ga ijodiy yondashuv natijasida tasviriy san‘atga xos bo‘lgan usullar paydo bo‘lgan. 300 morfli tasvirlash tizimida ‘yangi badiiy’ yo‘nalishlar — o‘simliksimon-geometrik, to‘r (o‘rim) shaklidagi naqshlarni qo‘llash vujudga kelgan. Qushlar va hayvonlar tasvirlarida ularni o‘simlik unsurlari bilan uyg‘un holda, daraxtlarga yaqin kompozitsiyada aks ettirish an‘anasi shakllangan. Ko‘chmanchilarga xos taqinchoq-blyashkalar esa tugma (buton) shaklida tayyorlangan.

Kaspiy–Orol bo‘yi ko‘chmanchilarining loydan yasaliib, kuydirish yo‘li bilan ishlangan kurilnitsa va qurbonlik (jertvennik) buyumlarida hayvonlar tasviri aks ettirilgan. Skif davriga oid ayrim blyashkalarda mahalliy fauna vakillari — tog‘ echkisi, arxar, lochin (sunkor) tasvirlari uchraydi. Yevroosiyo ko‘chmanchilarida qozonlar (qotli) ham 300 ga yaqin turli shakldagi tasvirlar bilan bezatilgan. Ko‘chmanchi sarmatlar san‘atida hayvonlar tasviri nisbatan kam bo‘lib, ular asosan arslon, bars, ayiq, ot, bo‘ri, suvsar va echki figuralarini ishlatganlar. Shuningdek, ko‘chmanchilar xanjarlari, oynalari, qilichlari hamda o‘q-yoy g‘iloflarini ‘hayvon uslubi’dagi tasvirlar bilan bezaganlar.[6. C 45-56]

Miloddan avvalgi III–II asrlarda Quyi Orol bo‘yi hududlariga turkiy qabilalarning kirib kelishi kuchayadi. Ayniqsa, ushbu davrda hunnlar va tele etnoslari yetti asosiy qabila tarkibida Xorazm hududiga ham kirib kelgan. Miloddan avvalgi VII–V asrlarda esa saklarning ijtimoiy hayoti harbiy-demokratik va konfederativ davlat tuzilmasi darajasiga ko‘tarilgan. Qadimgi davrda saklar, massagetlar, sarmatlar, qang‘lilar, hunnlar hamda tele qabilalari ilk turkiy etnos shakllanishida muhim tarkibiy qismni tashkil etgan.

Quyi Orol saklari Eronning Ahmoniylar davri, Baktriya, Xorazm va Xitoyning Shjou hamda Xan imperiyalari davridagi badiiy san‘at bilan tanish bo‘lgan. Miloddan avvalgi VIII asrdan boshlab saklar orasida keng tarqalgan ‘hayvonlar uslubi’ nomli badiiy yo‘nalish keng tarqalgan. Ko‘plab buyumlarda qo‘chqar, tuya, yo‘lbars, burgut kabi hayvonlar tasvirlari aks ettirilgan.

Saklarning e‘tiqodiga ko‘ra, xudolar odamlar oldida qanotli otlar (tulparlar), qushlar va boshqa hayvonlar shaklida namoyon bo‘ladi, deb hisoblangan. Ushbu obrazlar mifologiya va xalq rivoyatlarida keng o‘rin egallaganligi sababli ‘hayvonlar uslubi’ paydo bo‘lgan. Saklarning zargarlik badiiy san‘ati namunalariga — sirg‘a, bronzadan ishlangan uzuklar, qurol-yarog‘lar va hayvon tasvirlari bilan bezatilgan buyumlar kiradi. Bu topilmalar Tegisken, Uygarak va Issiq qabristonlaridan aniqlangan. Saklar mifologiyasida esa otlar Quyosh va olov bilan bog‘liq hisoblangan.

Tulpar otlar haqida qaraqalpoqlarning ‘Alpamis’ va ‘Qoblan’ dostonlarida uchraydi. Saklar dunyoni, tabiatni va kosmosni tushunishda o‘ziga xos qarashlarga ega bo‘lgan. Mitra va Indra kabi xudolar bilan bog‘liq bo‘lgan dunyo tasavvuri yer osti dunyosi, o‘rta dunyo, yer yuzasi va yuqori osmon dunyolarini o‘z ichiga olgan. Ularning tushunishicha, dunyoning to‘rt tomoni bor: sharq, g‘arb, old va orqa. Umuman olganda, sak–massagetlarning ‘hayvonlar uslubi’ ularning dunyoni anglash va tushunishidagi haqiqiy ko‘rinishini aks ettiradi; bu esa mifologiyada, badiiy san‘atda va saklarning ideologiyasining shakllanishida o‘z ifodasini topganini tasdiqlaydi. [5. 45-77]

Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda saklarning ijtimoiy tuzilishi harbiy-demokratik va konfederativ davlat darajasiga ko‘tarilgan. Qadimgi davrda sak–massagetlar, sarmatlar, qang‘lilar va hunnlar qabilalari Orol bo‘yi xalqlari bilan birga o‘zlarining moddiy va ma‘naviy madaniy merosini, diniy an‘analarini shakllantirgan. Shu davrda Qoraqalpog‘iston hududida ilk turkiy tillarda so‘zlashuvchi xalqlar yashagan.

Umuman olganda, ilk va o‘rta asrlardagi ko‘chmanchilarning o‘zaro aloqalari natijasida yangi etno-madaniyatlar shakllangan. Xususan, Kaspiy–Orol oralig‘i, Quyi Orol bo‘yi, Sirdaryo va Amudaryo havzalarida yangi madaniyatlar yuzaga kelgan. Ushbu tarixiy masalani biz Quyi Orol bo‘yi xalqlarining o‘rta asr arxeologik madaniyatidagi ayrim yangi o‘zgarishlarda, qo‘rg‘onlar va boshqa yodgorliklarni kuzatishda ko‘ramiz.

Masalan, Kaspiy–Orol va Quyi Orol bo‘yi xalqlarining VI–VIII asrlardagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti bo‘yicha yozma manbalar va arxeologik materiallar tahlili A. V. Gudkova tomonidan ‘Toqqala’ nomli asarda yoritilgan. U

Amudaryo havzasidagi Kerder yodgorliklarini — Tokqala, Hayvankala, Qirantov, Kuyiqqala, Qo'rg'oncha va boshqa joylarda topilgan keramik idishlarni ilmiy baholash bilan tahlil qilgan. Kerder viloyati aholisi va ularning kelib chiqishi haqida ham qisqacha fikr bildirgan. Sirdaryo bo'yidagi og'uz qabilalari Amudaryo bo'yida yashagan. Kerder xalqining etnik tarkibi va tili ham o'rganilgan. A. V. Gudkova Kerder xalqining Qoraqalpoq etnogenezi masalasidagi o'rni va ahamiyatini ta'kidlagan. [4. С 110-128]

Foydalangan adabiyotlar.

1. Древняя и средневековая культура юго-восточного Устюрта. Ташкент, 1978. С.155.
2. Руденко С.И. Культура хуннов и ноинулинские курганы. М.-Л, 1962. С.107.
3. Толстов С.П. Приаралские скифы и Хорезм// Советская этнография. 19062.
4. Вишневская О.А. Культура саков низовьев Сырдарьи 1 тысячелетие до н.э. М., 1973. С.167.
5. Артомонов М.И. Скифо-сибирское искусство звериного стиля// Проблемы скифской археологии. М. 1971;
6. Акишев К.А. Курган Иссык. М, 1978. Артаманов М. Сокровище саков. М. 1973.